

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 4 (16)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Akbarov Ravshan Xalimovich JADIDLAR MA'RIFATCHILIK FAOLIYATINI YOYISHDA "TARJIMON" GAZETASINING O'RNI	4
2	Ахрарова Амалия Искандеровна ЭВОЛЮЦИЯ ФОРМАТОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ЯПОНИИ: СТАНОВЛЕНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА	14
3	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССР САБЗАВОТ-ПОЛИЗ ЭКИНЛАРИ ВА КАРТОШКА ИЛМИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН	27
4	Israilov Nodir Raximjonovich XVI ASR FRANSUZ SHARQSHUNOSLARI ASARLARIDA AMIR TEMUR HAYOTI VA DAVLATCHILIK FAOLIYATINING TADQIQ ETILISHI	39
5	Kandaxarov Anvarjon Xasanovich BUXORO XONLIGIDA JO'YBOR XOJALARINING IQTISODIY QUDRATI: SHAKLLANISH OMILLARI VA IJTIMOY-SIYOSIY TA'SIRI	45
6	Mamajonov Soyibjon Xalilovich AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON MUNOSABATLARI YOZEF FON XAMMER-PURGSHTAL TALQINIDA	52
7	Mahkamova Zulxumor Murodjon qizi TURKISTON ASSRNING SOLIQ SIYOSATI TARIXIDA KADRLAR TARKIBINING AKS ETISHI	58
8	Mirzayeva Zaxra Xayritdinovna KO'RGAZMA ORTIDAGI IMPERIYA: KAUFMAN DAVRIDA TURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATINING NAMOYON BO'LISHI	64
9	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TO'SKENT VOHASINING QADIMGI VA RIVOJLANGAN ORTA ASRLAR DAVRI TARIXI VA MADANIYATIGA OID YOZMA MANBALAR XUSUSIDA	71
10	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGIDA AHOLINING OMMAVIY ISHLARGA JALB ETILISHI TARIXSHUNOSLIGI	85
11	Nuridinov Turdali Qambarovich., Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda QO'QON XONLIGI-XITOIY O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR XORIJIY TADQIQOTCHILAR TALQINIDA	90
12	Raxmankulova Matluba Bayxurazovna XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI	96
13	Razzokova Nigora Olimjon kizi INCLUSIVE EDUCATION PRACTICES AND THEIR IMPACT ON LINGUISTICALLY DIVERSE LEARNERS IN MULTICULTURAL CLASSROOMS	107
14	Sadirov Aziz Sirojiddinovich MUSTAQILLIK ARAFASIDA QASHQADARYO VILOYATIDA YO'L TRANSPORT INFRAUZILMASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	113
15	Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ ХАЛҚАРОЛАШУВИ ТАРИХИГА ДОИР (1997-2016)	120

Raxmankulova M. B.

Ilmiy tadqiqotlar bo'limi yetakchi ilmiy xodimi

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi

rmatluba@gmail.com

XX ASR BOSHLARIDA G'ARBDA TEMURIYLAR KITOBAT SAN'ATINING O'RGANILISHI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asr boshlarida G'arb tadqiqotchilari tomonidan Amir Temur va Temuriylar davri kitobat san'ati, muqovasozlik, qog'oz ishlab chiqarish va miniatyura maktablarining o'rganilishi tarixi tahlil qilingan. Tadqiqotda P. Adam, T. Gottlib, J. Karabachyok, F.R. Martin va J. Luber kabi yevropalik olimlarning ilmiy izlanishlari hamda ularning soha rivojiga qo'shgan hissalarini yoritilgan. Shuningdek, 1910-yilda Berlin va Myunxen shaharlarida tashkil etilgan Sharq hamda musulmon san'ati ko'rgazmalarining Temuriylar davri kitobat durdonalarini dunyoga tanitishdagi va keyingi davr tizimli tadqiqotlari uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilgani ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, kitobat san'ati, muqovasozlik, Samarqand qog'ozi, miniatyura, Kamoliddin Behzod, F.R. Martin, J. Karabachyok, Myunxen ko'rgazmasi (1910), Berlin ko'rgazmasi.

KIRISH

Islom madaniyati va san'ati tarixida Amir Temur va Temuriylar davri (XIV–XVI asrlar) kitobat ishi, xattotlik, miniatyura hamda muqovasozlik san'atining eng yuksak rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda yaratilgan qo'lyozmalar va noyob san'at durdonalari vaqt o'tishi bilan G'arb ilmiy jamoatchiligining ham diqqat markaziga tushdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, yevropalik sharqshunos va san'atshunos olimlar tomonidan islom kitobat san'atini tizimli tadqiq etish boshlandi. Bu jarayonning yuzaga kelishiga nemis tadqiqotchisi Pavel Adamning ilmiy ishlari turtki bo'lgan bo'lsa, keyinchalik J.Karabachyok, T.Gottlib, J.Luber va F.R.Martin kabi olimlar Temuriylar davri madaniyatini yangicha yondashuvlar asosida o'rgandilar. Ular o'z tadqiqotlarida Samarqand qog'ozining ahamiyati, miniatyura maktablari, xususan, ustoz-shogirdlik an'analari va Kamoliddin Behzod ijodini G'arb dunyosiga namoyish etdilar.

XX asr boshida Berlin va Myunxenda tashkil etilgan yirik ko'rgazmalar esa ilgari faqat sanoqli kishilargagina ma'lum bo'lgan san'at asarlarini keng ilmiy jamoatchilik uchun ochib berdi va Temuriylar kitobat san'ati tadqiqida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Mazkur maqola ushbu tadqiqotlarning xronologiyasini izchillik bilan ko'rib chiqish va ularning Sharq san'ati tarixini baholashdagi ilmiy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

G'arb tarixshunosligida islom kitobat ishi, xususan, Amir Temur va Temuriylar davri (XIV–XVI asrlar) muqovasozlik mahoratini tizimli va texnik jihatdan

o'rganish nemis olimi, kitob savdosi va muqova ishi mutaxassisi Pavel Adam (1849–1931) nomi bilan uzviy bog'liqdir. Uning tadqiqotlari Yevropa ilmiy jamoatchiligi uchun Sharq kitob san'atining noyob texnologik xususiyatlarini kashf etib bergan dastlabki fundamental manbalardan hisoblanadi.

Muallifning 1890-yilda Leypsig shahrida chop etilgan “Kitob muqovasi: texnikasi va tarixi” (*Der Bucheinband: seine Technik und seine Geschichte*) [1] nomli asarida islom olami, xususan, Temuriylar madaniyati gullagan Samarqand, Hirot va Sheroz singari yirik markazlarda yaratilgan muqovalar alohida tarixiy-estetik boblarda tahlil qilingan. P.Adam yevropalik professional usta sifatida Temuriylar davri qo'lyozmalari muqovasining nafaqat tashqi go'zalligiga, balki ularni tayyorlashning murakkab texnik jarayonlariga e'tibor qaratdi. U kitobda Temuriylar davri kutubxonalarida shakllangan teri qoplamali muqovalarni o'rganar ekan, teriga ishlov berish, unga oltin suvi yugurtirish, issiq bosim va zarb texnikasi hamda muqovaning ichki qismi – dublur ga yuksak mahorat bilan ishlangan nafis zanjirali naqshlar va chiy ipakdan qilingan bezaklar mahoratini yuqori baholagan.

Pavel Adamning Sharq kitobat san'atiga bag'ishlangan izlanishlari keyinchalik yangi bosqichga ko'tarildi. Olimning 1904–1905-yillarda nufuzli “Muqovaso'zlik arxivi” (*Archiv für Buchbinderei*) jurnalida ketma-ket nashr etilgan “Turk-arab-fors qo'lyozmalari va ularning muqovalari” (*Über türkisch-arabisch-persische Manuskripte und deren Einbände*) nomli maqolalar turkumi [2] Temuriylar davri kitobat ishining konstruktiv detallarini ochib berdi.

Pavel Adamning ushbu ikki fundamental merosi G'arb ilm-fanida Temuriylar davri kitobat san'atini shunchaki vizual san'at sifatida emas, balki yuksak muhandislik va texnologik mahorat mahsuli sifatida baholashga zamin yaratdi. Uning tadqiqotlari keyinchalik T.Gottlib, J.Luber va F.R.Martin kabi yirik olimlarning Temuriylar qo'lyozma merosini yanada chuqurroq va kompleks o'rganishi uchun o'ziga xos metodologik poydevor bo'lib xizmat qildi.

Asr boshlarida nashr qilingan J.Karabachyok [4; 5; 6] , T.Gottlib [3] , J.Luber [9; 10] , F.R. Martin [11; 12; 13; 14; 15; 16] tadqiqotlarida Amir Temur va temuriylar davri kitobat ishining turli masalalari tadqiq qilingan.

XX asr boshlarida G'arb sharqshunosligida Temuriylar davri kitobat san'ati va matnshunosligini moddiy madaniyat nuqtayi nazaridan o'rganishda taniqli avstriyalik olim, Vena universiteti professori Jozef fon Karabachyok (1845–1918) izlanishlari alohida bosqichni tashkil etadi. Olimning tadqiqotlari Sharq qo'lyozmalarini shunchaki matniy yoki badiiy jihatdan emas, balki fundamental materialshunoslik, paleografiya va arxeologik-antikvariat nuqtayi nazaridan izchil tahlil qilib bergani bilan qiymatlidir.

Muallifning 1887-yilda Venada chop etilgan “Arab qog'ozi: tarixiy-antikvariat tadqiqoti” (*Das arabische Papier: Eine historisch-antiquarische Untersuchung*) [4] nomli fundamental monografiyasi islom dunyosida, xususan, Markaziy Osiyoda kitobat ishining eng asosiy moddiy poydevori bo'lgan qog'oz ishlab chiqarish tarixini ochib berdi. J.Karabachyok ersgersog Rayner papiruslari va Temuriylar davriga oid noyob qo'lyozmalar matosini kimyoviy va mikroskopik tahlil qilish orqali Samarqand qog'ozi fenomenini ilmiy muomalaga qildi.

Olim mazkur asarida 751-yildagi Talos jangidan so'ng xitoylik ustalar orqali Samarqandda ipak va kanop chiqindilaridan qog'oz tayyorlash texnologiyasining yo'lga qo'yilishi hamda bu inqilobiy jarayonning Temuriylar davrida (XIV–XV asrlar) o'z cho'qqisiga chiqqanini dalilladi. U Temuriylar davri kitobat san'atida ishlatilgan Samarqand qog'ozining o'ta silliqliqi, uzoq muddat chidashi va xattotlik uchun qulayligi xususiyatlarini alohida qayd etdi. Kitobda Samarqand qog'ozining Sharqda kutubxonachilik va noyob qo'lyozmalar yaratish tizimi shakllanishidagi strategik o'rni nazariy jihatdan asoslab berildi.

Bu mavzu olimning 1890-yilda «Sharq uchun Avstriya oylik jurnali»da chop etilgan “Qog'oz va matbaachilik tarixiga oid yangi kashfiyotlar” (*Neue Entdeckungen zur Geschichte des Papiers und Druckes*) nomli ilmiy maqolasida [5] izchil davom ettirildi. Bu yerda J.Karabachyok Temuriylar davlatida qog'ozga ishlov berish, ohlash va shisha tosh bilan silliqlash usullarini bayon qildi. Olimning fikricha, Amir Temur va Shohrux Mirzo davrida Samarqand va Hirotida qo'llanilgan qog'oz tayyorlash texnologiyasi qo'lyozmalarga asrlar davomida zarar yetkazmaydigan va miniatyura bo'yoqlarining, ayniqsa, oltin va lajuvardning asl holida saqlanishini ta'minlaydigan kimyoviy barqarorlikka ega bo'lgan.

J. Karabachyokning 1913-yilda Vena Fanlar akademiyasi axborotnomasida nashr etilgan “Sharq antikvariatshunosligi tadqiqotlari IV: Musulmon san'ati izlanishlari” (*Zur orientalischen Altertumskunde IV: Muhammedanischer Kunststudien*) nomli asari [6] bevosita Temuriylar davri saroy kutubxonalari va kitobat madaniyatini tahlil qilishga bag'ishlandi. Ushbu tadqiqotda olim Vena saroy kutubxonasida saqlanayotgan va sultonlar kutubxonasiga tegishli bo'lgan Temuriylar davriga oid noyob muqovalar va qo'lyozmalarni snoskalar va paleografik belgilar orqali identifikatsiya qildi. Shuningdek, J.Karabachyok Shohrux Mirzo davrida (1405–1447) Hirot maktabida yaratilgan va Vena fondida saqlanayotgan "Nasoyihi Shohruxi" qo'lyozmasini [Vienna, Österreichische Nationalbibliothek. A.F. 112] va undagi kutubxona muhrlarini chuqur o'rgandi. U Temuriy hukmdorlarning shaxsiy imzolari va muhrlari tizimini tahlil qilib, davlatchilik va ilm-fan o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib berdi. Muallif 1910-yilgi Myunxen ko'rgazmasi natijalariga tayangan holda, Temuriylar davri kitobat san'atini shunchaki mahalliy hunarmandchilik emas, balki yuksak rivojlangan materialshunoslik va paleografik izchillikka ega bo'lgan umumjahon san'at fenomeni sifatida baholadi.

XX asr boshlarida Yevropa sharqshunosligida Temuriylar davri kitobat san'atini o'rganish nafaqat umumiy nazariy izlanishlar, balki Yevropaning yirik qirollik kutubxonalariida saqlanayotgan noyob qo'lyozmalar fondlarini tizimli kataloglashtirish orqali ham amalga oshirildi. Bu borada avstriyalik taniqli olim va kutubxonashunos Teodor Gottlib (1860–1929) tomonidan Vena saroy kutubxonasi (hozirgi Avstriya milliy kutubxonasi) kolleksiyasi asosida tayyorlangan ilmiy kataloglar Sharq, xususan, Temuriylar davri muqovasozlik mahoratini o'rganishda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

T. Gottlib rahbarligida Venada chop etilgan “Muqovalar ko'rgazmasi katalogi: Imperator va qirollik saroy kutubxonasi” (*Katalog der Ausstellung von Einbänden: K.K. Hofbibliothek, 1900*) nomli 197 sahifalik yirik nashr [7] G'arb

san'atshunosligida Temuriylar davri kitobat durdonalarini birinchi marta rasmiy atributsiya qilgan kataloglardan biridir. Saroy kutubxonasida tashkil etilgan ushbu yirik ko'rgazma katalogida dunyoning turli burchaklaridan to'plangan noyob kitob muqovalari xronologik va geografik tartibda joylashtirilgan. Uning «Sharq muqovalari» bo'limida Avstriya imperatorlari kolleksiyasidan joy olgan, XIV–XV asrlarda Samarqand va Hirot saroy kutubxonalarida yaratilgan bir qancha noyob teri muqovalar ilk bor ilmiy bayon etilgan. Katalog tuzuvchilari Temuriylar davri kitob ustalarining teri yuziga bo'rtma naqsh berish va muqovaning ichki tomonini nafis ranglar hamda oltin naqshlar bilan bezash uslublarini g'arb kutubxonlariga tanitdilar.

Bu sohadagi izchil ilmiy xulosalar T.Gottlibning 1910-yilda chop etilgan «Kitob muqovalari: Imperator va qirollik saroy kutubxonasi» (Bucheinbände: K. K. Hofbibliothek) nomli tadqiqotida [3] o'z ifodasini topdi. Ushbu 84 sahifalik matn va unga ilova qilingan noyob foto-tasvirlar jamlanmasi Temuriylar kitobat san'ati tadqiqi uchun bir qator muhim ilmiy natijalarni berdi. Xususan, T.Gottlib Vena kutubxonasi fondlarida saqlanayotgan va bevosita Shohrux Mirzo, Boysung'ur Mirzo va Husayn Boyqaro davrlariga tegishli deb topilgan 8 ta noyob Temuriylar davri muqovasini aniq tavsiflab berdi [3, №№29–35; 41]. Shuningdek, olim XV asr Yevropa, xususan, Uyg'onish davri Italiya muqovasozi san'ati rivojiga Sharq, xususan, Temuriylar muqova san'atining kuchli ta'sir ko'rsatganini nazariy jihatdan ilgari surdi. U Temuriy ustalarining teriga oltin suvi yugurtirish va geometrik simmetriyani qo'llash borasidagi mahorati Yevropa ustalaridan ancha oldin shakllanib, mukammallikka erishganini ta'kidladi. Muallif Vena kutubxonasining asosiy durdonalaridan biri bo'lgan, Shohrux Mirzo uchun Hirotida maxsus ko'chirilgan "Nasoyihi Shohruxi" (Shohrux nasihatleri) qo'lyozmasining asl teri muqovasini san'atshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qildi. U kitob muqovasidagi markaziy medalyon va hoshiyalardagi naqshlarning joylashuvini Sharq falsafasi va estetikasi bilan bog'lab tushuntirdi.

XX asr boshida G'arb dunyosida Temuriylar davri kitobat madaniyatini tizimli va solishtirma-tarixiy metodlar asosida tadqiq etishda nemis olimi Jan Luberning (1863–1934) ilmiy ishlari muhim burilish davrini boshlab berdi. Muallifning 1910-yilda nufuzli «Muqovasozi arxivi» (*Archiv für Buchbinderei*) jurnalida chop etilgan tadqiqotlari Sharq kitob san'ati, xususan, XIV–XV asrlar Samarqand va Hirot maktablari merosini Yevropa klassik san'atshunosligi mezonlari asosida baholab berdi.

J. Luberning «Sharq muqovasozi san'ati» (*Orientalische Einbandkunst*, 1910) nomli birinchi maqolasida [9] islom olami kutubxonalarida shakllangan muqova tizimlarining evolyutsiyasi batafsil ko'rib chiqiladi. Muallif mazkur tadqiqotda Temuriylar davri muqovasozi san'atini islom madaniyatining eng yuqori va mukammal bosqichi sifatida baholaydi. U Temuriy ustalarining teriga ishlov berishdagi virtuozi, xususan, muqovaning ichki tomoniga qo'llaniladigan va nafis o'simliksimon naqshlardan iborat bo'lgan o'ymakorlik san'atini alohida tahlil qilgan. Maqolada Sharq kitobat san'ati ko'rgazmasida namoyish qilingan temuriylar davriga oid muqovalar tadqiq qilingan [8, No. 137; 332; 209].

Olimning shu yili nashr etilgan ikkinchi fundamental ishi – “1910-yilgi Myunxen musulmon san’ati ko’rgazmasida muqovasozlik san’ati” (*Die Einbandkunst in der muhammedanischen Ausstellung in München 1910*) maqolasi [10] 1910-yilda Myunxenda tashkil etilgan «Muhammadiy san’at durdonalari» (*Meisterwerken muhammedanischer Kunst*) xalqaro ko’rgazmasi bevosita ishtirokchisi va ekspertlaridan biri sifatida eksponatlarni chuqur tahlil qildi. Xususan, muallif Myunxen ko’rgazmasiga Turkiya Sultoni Abdulhamid II ning ruxsati bilan Istanbuldagi Yildiz va To’pqopi saroyi kutubxonalaridan keltirilgan noyob Temuriylar davri qo’lyozmalarini tavsif laydi.

XX asrning birinchi choragida G’arb san’atshunosligida Temuriylar davri kitobat va tasviriy san’atini yangi metodologik asosda kompleks o’rganish shinam va keng qamrovli izlanishlari bilan tanilgan F.R.Martin hamda u bilan hamkorlik qilgan ingliz olimi T.V.Arnold nomlari bilan bog’liqdir. Ular ilk bor Sharq qo’lyozmalari tarkibidagi miniatyuralarni alohida rassomlik maktablari – Samarqand, Hirot, Buxoro, Sheroz maktablari an’analari bo’yicha tasnifladilar.

F.R. Martinning 1908-yilda Venada chop etilgan “1800-yilgacha bo’lgan Sharq gilamlari tarixi” (*A history of oriental carpets before 1800*) nomli tadqiqoti [11] kitobat san’atini bevosita amaliy san’atning boshqa turlari bilan sintezda o’rgangani bilan ahamiyatlidir. Muallif kitobning Temuriylar davriga bag’ishlangan qismida XIV–XV asr qo’lyozmalari muqovalaridagi bosma va naqshinkor naqshlar hamda miniatyuralarda tasvirlangan interer bezaklari, saroy gilamlari o’rtasidagi uzviy kompozitsion bog’liqlikni ko’rsatib berdi. Olim Temuriylar kitobat ustaxonalaridagi naqqoshlar nafaqat qo’lyozmalar bezagi, balki saroy gilamlari va me’morchilik frizlari uchun ham yagona andoza va ornamental tizimni ishlab chiqqanliklarini isbotladi.

Olimning 1912-yilda Londonda chop etilgan ikki jildlik “Fors, Hindiston va Turkiya miniatyura rangtasviri va rassomlari (VIII asrdan XVIII asrgacha)” (*The miniature painting and painters of Persia, India and Turkey*) nomli mashhur monografiyasi [13] Temuriylar miniatyura maktablarining jahon san’ati tarixidagi o’rnini mustahkamladi. Muallif kirish qismida 1894-yil Buxoroga kelganda material yig’ishni boshlaganini ta’kidlab o’tadi. F.R.Martin ushbu asarida Yevropa da "fors uslubi" deb yuritilgan san’atning tub ildizlari Amir Temur va Temuriylar tomonidan Samarqand va Hirotida tashkil etilgan akademiyalarga borib taqalishini ilmiy asosladi. Tadqiqotda Amir Temur davriga oid bizgacha yetib kelgan eng eng muhim qo’lyozma sifatida Xo’ja Kirmoniyning 799/1396-yil Bag’dodda ko’chirilgan qo’lyozmasini [British Museum, No. Ad. 18113] keltirib o’tadi. Qo’lyozma Samarqandda tayyorlanmagan bo’lsa-da, undagi miniatyuralar dunyo hukmdor mos uslubda tasvirlangani tadqiqotda ta’kidlangan. Tadqiqotda Amir Temur saroyida qora qalamda chizish uslubi paydo bo’lganligi o’sha davrga oid tasviriy namunalari [Osiyo san’ati milliy muzeyi (AQSH), Friir galareyasi, №F1929.79] asosida ko’rsatilgan. U Sharq manbalariga tayanib, Temuriylar miniatyura san’atining ibtidosida Ustod Gung va uning shogirdi buxorolik Ustoz Jahongir silsilasi turganini, ularning an’analari Iskandar Sulton, Shohrux Mirzo va Boysung’ur Mirzo kutubxonalarida yuksak akademik darajaga ko’tarilganini xronologik izchillikda bayon qildi.

Shu yili Myunxenda nashr etilgan “1485-yilga oid fors qo‘lyozmasidagi Behzod miniatyuralari” (*Les miniatures de Behzad dans un manuscrit persan daté 1485*) asari [12] esa ulug‘ musavvir Kamoliddin Behzod ijodini G‘arbga tanitishda inqilobiy qadam bo‘ldi. F.R.Martin 890/1485 yilda Muhammad Azhar tomonidan ko‘chirilgan Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa» qo‘lyozmasi [The Chester Beatty Library, No. CBL Per 163] tarkibidagi 22 ta noyob miniatyura lavhasini tahlil qilar ekan, Behzodning chiziqlar plastikasi, ranglar koloriti va inson psixologik holatini tasvirlashdagi mahoratini Yevropa Uyg‘onish davri ustalari ijodi bilan teng qo‘ydi.

1920-yillarga kelib F.R. Martin va T.V. Arnoldning hamkorlikdagi tadqiqotlari Temuriylar va ularga zamondosh sulolalar qo‘lyozma merosini batafsil o‘rganishga qaratildi. “Sulton Ahmad Jaloir she‘rlari qo‘lyozmasidagi Temur davri miniatyuralari” nomli tadqiqotda [14] mualliflar Amir Temur davri (XIV asr oxiri) kitobat san‘atining o‘tish davri xususiyatlarini o‘rgandilar. Ular Jaloiriylar va Temuriylar san‘ati orasidagi madaniy aloqalarni mazkur qo‘lyozma misolida tahlil qilib, Temuriylar saroyida “qora qalam” va nafis chiziqli marosim grafikasi uslubi qanday shakllanib borganini ko‘rsatdilar.

“Britaniya muzeyidagi Sulton Ali Mirzo Barlos uchun 1495-yilda yozilgan Nizomiy qo‘lyozmasi (Or. 6810)” nomli tadqiqot [15] Temuriylar kitobat san‘atining eng oliy namunasini ochib beradi. Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzo Barlos buyurtmasiga ko‘ra tayyorlangan va keyinchalik Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh hamda Qosim Ali tomonidan bezatilgan Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa» qo‘lyozmasi kitob bezash madaniyatining eng mukammal namunasi sifatida baholanadi. Mualliflar matn va tasvirning proporsional mutanosibligini, xattotlik, nasta‘liq xati va miniatyura sintezini yuqori baholadilar.

“Nyu-York Metropoliten muzeyidagi Eron Shohi kutubxonasiga tegishli Nizomiy qo‘lyozmasi” nomli tadqiqotda [16] F.R.Martin va T.V.Arnold ushbu asarda Temuriylar davrida ko‘chirilgan va keyinchalik Safaviylar shoh kutubxonasiga o‘tgan noyob qo‘lyozmaning (Metropoliten muzeyi, 13.228.7.1) tarixiy taqdiri, uning varaqlanish va saqlanish tarixini paleografik jihatdan tadqiq etdilar.

XX asr boshida Ovro‘po sharqshunosligida Temuriylar davri qo‘lyozmalari va tasviriy san‘atini mahalliy to‘plamlar doirasidan olib chiqib, keng qamrovli xalqaro ilmiy tahlil obyektiga aylantirishda 1910-yil fevral–mart oylarida Berlindagi Qirollik badiiy-sanoat muzeyida (*Königliche Museen Berlin.Kunstgewerbemuseum*) tashkil etilgan «Sharq kitob san‘ati maxsus ko‘rgazmasi» va uning ilmiy katalogi [8] tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur ko‘rgazma o‘sha yilning may oyida o‘tkazilgan mashhur Myunxen xalqaro anjumani uchun o‘ziga xos “ilmiy muqaddima” vazifasini o‘tadi.

Berlin ko‘rgazmasining eng muhim jihati shundaki, unda islom dunyosi va Markaziy Osiyo qo‘lyozmalari, xususan, Samarqand va Hirot maktablari ilk bor Sharqiy Turkiston ekspeditsiyalari davomida topilgan qadimgi uyg‘ur, sog‘d va moniylik madaniyatiga oid san‘at namunalari bilan yaxlitlikda namoyish etildi. Bu ilmiy yondashuv G‘arb olimlariga Temuriylar davri kitobat san‘ati va miniatyura tasvirlarining genezisi va tarixiy ildizlarini yangicha talqin qilish imkonini berdi.

Ko'rgazmada Maks fon Oppenxaym, Fridrix Sarre, Filipp Valter Shuls va K. Zander kabi XX asr boshining eng yirik kolleksionerlari tomonidan Sharqdan to'plangan, ilgari fan olamiga noma'lum bo'lgan 150 dan ortiq noyob qo'lyozmalar, xattotlik qit'alari va miniatyura lavhalari birinchi marta tizimli atributsiya qilindi va bayon etildi.

Ko'rgazma katalogida XV asr Temuriylar miniatyuralaridagi chiziqlar nafisligi (ayniqsa, "qora qalam" uslubi) hamda kitob muqovalaridagi afsonaviy jonotlar (ajdarho, simurg', nafis kiyiklar) tasvirining kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (Turfon, Dunxuan) va Xitoy san'ati bilan bo'lgan madaniy aloqalar mahsuli ekanligi nazariy jihatdan ko'rsatib o'tildi. Bu Temuriylar kitobat san'atini lokal diniy qolipdan chiqarib, umummintaqaviy fenomen sifatida baholashga zamin yaratdi. Ko'rgazma eksponatlari orasida Temuriy hukmdor va shahzodalari kitobat ustaxonalarida tayyorlangan nasta'liq va suls xatlari bilan bitilgan, varaqlari afshon va rangli qog'ozlarda tayyorlangan qo'lyozma parchalari Sharq xattotlik madaniyatining eng oliy cho'qqisi sifatida qayd etildi. Berlindagi jamoat va shaxsiy kolleksiyalarida kitobat san'atining qancha ajoyib hujjatlari borligidan olimlar, tadqiqotchilar hayratga tushdi. Ilgari faqat sanoqli kishilarga ma'lum bo'lgan, faqat sanoqli kishilargagina ko'rish ruhsam etilgan san'at durdonalari ko'rgazmada jamlanib, ilmiy tadqiqotlar uchun ochib berildi.

XX asr boshida G'arb ilm-fanida Temuriylar davri qo'lyozma madaniyati, xattotlik va muqovasozlik san'atini mahalliy, parchalangan tadqiqotlardan umumjahon san'at fenomeni darajasiga ko'targan eng yirik voqelik – 1910-yilda Myunxen shahrida Myunxenda Bavariya valiahd shahzodasi Rupprext homiyligida tashkil etilgan «Musulmon san'ati durdonalari ko'rgazmasi» (*Ausstellung von Meisterwerken muhammedanischer Kunst*) va uning rasmiy ilmiy katalogi [17] bo'ldi. Bu anjuman jahon tarixida islom dunyosining moddiy va madaniy merosini bir joyga jamlagan eng miqyosli tadbir bo'lib, unda dunyoning 260 dan ortiq yirik davlat va xususiy fondlaridan 3600 dan ziyod noyob eksponatlar namoyish etildi. Ko'rgazma katalogini shakllantirishda davrning mashhur olimlari Fridrix Paul Teodor Sarre (1865–1945), Severin Shryodor (1880–1953), List Kamillo (1867–1924), Ernst Kyunel (1882–1964), Moris Dreger (1868–1939), Maks van Bexem (1863–1921), Fridrix Martin bevosita ishtirok etdilar.

Ko'rgazmaning eng katta yutug'i – Osmonli imperiyasi Sultoni Abdulhamid II ning maxsus ruxsati bilan Istanbuldagi Yildiz va To'pqopi saroy kutubxonalaridan ilgari hech bir g'arb olimining qo'li tegmagan eng noyob Temuriylar davri sultonlik qo'lyozmalarining Myunxenga olib kelinishi bo'ldi. 1400-yillar boshiga (ilk Temuriylar davriga) oid mashhur she'riy antologiya qo'lyozmasi [Topkapi saroy muzeyi, Xazina 2152; 17, No. 649, - p.78] va uning tabiat tasvirlari (jayronlar, qushlar va o'simliklar) bilan bezatilgan noyob teri muqovasi shular jumlasidandir. Bu eksponat Sharq muqovasozligining eng oliy namunasi sifatida G'arb olimlarini hayratga soldi.

Rasmiy katalog va unga ilova qilingan foto-suratlar orqali Temuriylar davri kitobxonalarida yaratilgan va bugungi kunda jahon tasviriy san'atining durdonalari hisoblangan bir qancha lavhalar ilk bor ilmiy bayon qilindi. Xususan, Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" dostoniga ishlangan mashhur "Xumoy va Humoyun

bog'da" miniatyurasi [Paris, Collection Musee des Arfs Decoratifs, inv. 3727; 17, No.666], "Shahzoda bog'da" miniatyurasi [Boston, Museum of Fine Arts, Bartlett Fund and Special Contribution, 14.545; 17, No.667], temuriylar davri muqovalari [17, No. 834, 633, 631, 640], bezakli sahifalar [17, No. 852], Xalil Sulton davriga oid Samarqand mudofaasi tasvirlangan tarixiy mazmundagi miniatyuralar [Yildiz kutubxonasi, 1405-1409-yilga oid temuriylar davri hujjatlari jildidan; 17, no. 649] va boshqalar mavjud.

Bu asarlarning katalogda tizimlashtirilishi G'arb san'atshunosligidagi hukmron "Yevrotsentrizm", ya'ni, Yevropa Renessansini yagona yuksak madaniyat deb bilish ga oid qarashlariga chek qo'ydi va Temuriylar Renessansi kitobat madaniyatini jahon madaniyatining eng yuqori cho'qqilaridan biri sifatida tan olinishini ta'minladi.

Myunxen katalogida Temuriylar davri kitobat san'ati alohida ajratilgan holda emas, balki u bilan zamondosh bo'lgan Temuriylar davri arxitektura siporishlari, koshinlari va metall kandakorligi (masalan, Amir Temur buyurtmasi bilan Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun quyilgan mashhur Tayqozon va shamdonlar) bilan solishtirma ravishda tahlil qilindi. Bu yondashuv Temuriylar davrida xattotlik (ayniqsa, suls, kufiy va nasta'liq xatlari) nafaqat kitob varaqlarida, balki me'morchilik va amaliy san'atda ham yagona estetik va kompozitsion tizimni tashkil etganini isbotlab berdi.

XULOSA

XX asr boshlarida G'arbda Temuriylar davri kitob san'atiga bo'lgan qiziqish P.Adam tadqiqotlari orqali shunchaki vizual kuzatuvdan yuksak muhandislik va texnologik mahorat mahsuli sifatida baholash bosqichiga o'tdi. Uning izlanishlari keyingi davr tizimli tadqiqotlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi. J.Karabachyokning fundamental izlanishlari islom dunyosida Samarqand qog'ozi fenomenini ilmiy muomalaga kiritdi. Olim kimyoviy, mikroskopik va paleografik tahlillar yordamida Temuriy hukmdorlarning shaxsiy imzolari, kutubxona muhrlari va davlatchilik tizimi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni isbotladi. T.Gottlib, F.R.Martin va T.V.Arnold kabi olimlar Yevropa fondlaridagi noyob Temuriylar merosini ilk bor aniq rasmiy atributsiya qildilar. Ular miniatyuralarni alohida rassomlik maktablari va ustoz-shogirdlik (Ustod Gung va Ustoz Jahongir silsilasi) an'analari bo'yicha tasniflab, Kamoliddin Behzod ijodini jahon madaniyatining yuksak cho'qqisi sifatida Yevropaga tanitdilar. 1910-yilgi Berlin va Myunxen xalqaro ko'rgazmalari ilgari yopiq bo'lgan noyob sultonlik qo'lyozmalari va san'at durdonalarini keng ilmiy jamoatchilik uchun ochib berdi. Ushbu anjumanlar katalogbuildlari Sharq san'atining nafis plastikasi va Buyuk Ipak yo'li bo'yidagi madaniy transformatsiyalar mahsuli ekanligini nazariy jihatdan asosladi. Myunxen ko'rgazmasi katalogida Temuriylar kitobat madaniyatining xattotlik, me'morchilik va amaliy san'at bilan yagona estetik kompozitsion tizimni tashkil etgani ko'rsatildi. Bu ilmiy xulosalar Yevropa san'atshunosligidagi hukmron "Yevrotsentrizm" qarashlariga chek qo'yib, Temuriylar Renessansi maqomini xalqaro miqyosda rasman mustahkamladi. Umumiy aytganda, XX asr boshidagi G'arb sharqshunoslari va katalog tuzuvchilari tomonidan yaratilgan ushbu

fundamental baza bugungi kunda ham Temuriylar davri kitobat san'ati va paleografiyasini zamonaviy metodlar asosida qayta tadqiq etishda eng ishonchli birlamchi manbaviy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adam P. Der Bucheinband: seine Technik und seine Geschichte. – Leipzig: Seemann, 1890. – 280 p.
2. Adam P. Über türkisch-arabisch-persische Manuskripte und deren Einbände // Archiv für Buchbinderei. – 1904. – № 4. – P. 141-143; 1905. – № 4. – P. 145-152, 161-168, 177-185; 1905. – № 5. – P. 3-9.
3. Gottlieb T. Bucheinbände: K. K. Hofbibliothek. – Vienna: Schroll, 1910. – 84 p.
4. Karabaček J. von. Das arabische Papier: Eine historisch-antiquarische Untersuchung. – Wien: Hof- und Staatsdruckerei, 1887.
5. Karabaček J. von. Neue Entdeckungen zur Geschichte des Papiere und Druckes // Österreichische Monatsschrift für den Orient. – 1890. – № 16. – P. 161-170.
6. Karabacek J. von. Zur orientalischen Altertumskunde IV: Muhammedanischer Kunststudien // Kais. Akademie der Wissenschaften. Philosophische-historische Klasse. Sitzungsberichte. – Vienna, 1913. – № 172. – P. 33-60.
7. *Katalog der Ausstellung von Einbänden: K. K. Hofbibliothek.* – Wien: K. K. Hofbibliothek, 1900. – 197 p.
8. *Königliche Museen Berlin, Kunstgewerbemuseum.* Katalog der Sonderausstellung orientalischer Buchkunst: Handschriften und Miniaturen aus den Ländern des Islam und aus Ost-Turkestan (Februar – März 1910). – Berlin, 1910.
9. Loubier J. Orientalische Einbandkunst // Archiv für Buchbinderei. – 1910. – № 10 (X). – P. 33-43.
10. Loubier J. Die Einbandkunst in der muhammedanischen Ausstellung in München 1910 // Archiv für Buchbinderei. – 1910. – № 10. – P. 144-153.
11. Martin F. R. A history of oriental carpets before 1800. – Vienna: Court Printing Office, 1908. – P. 28–41.
12. Martin F. R. Les miniatures de Behzad dans un manuscrit persan daté 1485. – Munich: F. Bruckmann, 1912. – 22 plates on 20 leaves.
13. Martin F. R. The miniature painting and painters of Persia, India and Turkey, from the 8th to the 18th century. – London: B. Quaritch, 1912. – 160 p.
14. Martin F. R., Arnold T. W. Miniatures from the Period of Timur in a Ms. of the Poems of Sultan Ahmad Jalair. – Vienna: Adolf Holzhausen, 1926. – 28 p., 16 Plates.
15. Martin F. R., Arnold T. W. The Nizami ms: Illuminated by Bihzad, Mirak and Qasim Ali, written 1495 for Sultan Ali Mirza Barlās, ruler of Samarqand, in the British museum (Or. 6810). – Vienna: The author, 1926. – 9 p.

16. Martin F. R., Arnold T. W. The Nizāmī ms. from the library of the Shah of Persia: Now in the Metropolitan Museum at New York. – Vienna: F. R. Martin, 1927. – 18 p., 22 plates.

17. *München Ausstellung von Meisterwerken muhammedanischer Kunst 1910: Amtlicher Katalog*. – München: Die Ausstellung, 1910. – 1 volume.

Rakhmankulova M. B.

Ведущий научный сотрудник отдела научных исследований

Центр исламской цивилизации в Узбекистане

rbmatluba@gmail.com

ИЗУЧЕНИЕ КНИЖНОГО ИСКУССТВА ТИМУРИДОВ НА ЗАПАДЕ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется история изучения книжного искусства, переплетного дела, производства бумаги и миниатюрных школ эпохи Амира Тимура и Тимуридов западными исследователями в начале XX века. В исследовании освещаются научные изыскания таких европейских ученых, как П. Адам, Т. Готтлиб, Й. Карабачек, Ф.Р. Мартин и Й. Лубье, а также их вклад в развитие данной сферы. Также показано, что выставки восточного и мусульманского искусства, организованные в 1910 году в Берлине и Мюнхене, послужили важным фундаментом для ознакомления мировой общественности с шедеврами книжного искусства Тимуридов и для последующих систематических исследований.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, книжное искусство, переплетное дело, самаркандская бумага, миниатюра, Камолиддин Бехзод, Ф. Р. Мартин, Й. Карабачек, Мюнхенская выставка (1910), Берлинская выставка.

Rakhmankulova M. B.

Leading Researcher at the Scientific Research Department

Center of Islamic Civilization in Uzbekistan

rbmatluba@gmail.com

THE STUDY OF TIMURID BOOK ARTS IN THE WEST IN THE EARLY 20TH CENTURY

ABSTRACT

This article analyzes the history of Western research into Timurid book arts, bookbinding, paper production, and miniature schools during the early 20th century. The study highlights the scholarly contributions of European researchers such as P. Adam, T. Gottlieb, J. Karabacek, F. R. Martin, and J. Loubier, tracing their impact on the field. Furthermore, it demonstrates how the exhibitions of Oriental and Islamic art held in Berlin and Munich in 1910 served as a critical

foundation for introducing Timurid book masterpieces to the global scientific community and paving the way for subsequent systematic research.

Keywords: Timurid period, book arts, bookbinding, Samarkand paper, miniature painting, Kamoliddin Behzod, F. R. Martin, J. Karabacek, Munich Exhibition (1910), Berlin Exhibition.